

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TRIGONOMETRIK YIG‘INDILARNING BERILGAN ORALIQLDAGI n- DARAJALI CHEGIRMALAR SONINI ANIQLASHGA TATBIQI	9
1.1-§. Birinchi va ikkinchi darajali trigonometrik yig‘indilarni baholash	9
1.2-§. n -darajali trigonometrik yig‘indilarni baholash.....	15
1.3-§. Trigonometrik yig‘indilarning berilgan oraliqdagi n -darajali chegirmalar sonini aniqlashga tatbiqi	25
I bob yuzasidan xulosalar	31
II BOB. NATURAL SONLAR BO‘YICHA OLINGAN TRIGONOMETRIK YIG‘INDILARNING ADDITIV MASALALARNI YECHISHGA TATBIQLARI	32
2.1-§. Veyl teoremasi va uning tatbiqlari.	32
2.2-§. Veyl teoremasi tipidagi teoremlarning Varing masalasiga tatbiqi.....	44
2.3-§. Ketma ketliklar kasr qismlarining taqsimlanishini baholashda tatbiqi	51
II bob yuzasidan xulosalar.....	58
III BOB. TUB SONLAR BO‘YICHA OLINGAN TRIGONOMETRIK YIG‘INDILARNING ADDITIV MASALALARNI YECHISHDA TATBIQLARI	59
3.1-§. Vinogradov teoremasi.....	59
3.2-§. Tub sonlar bo‘yicha olingan birinchi darajali trigonometrik yig‘indilarning baholari.....	66
3.3-§. Tub sonlar bo‘yicha olingan birinchi darajali trigonometrik yig‘indilarning additiv masalalarni yechishdagi tatbiqlari.....	72
III bob yuzasidan xulosalar.	84
XULOSALAR	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	87

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekiston Resublikasi mustaqillika erishgandan so‘ng ko‘pgina sohalar bilan bir qatorda ta‘lim sohasida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bunda asosan rivojlangan davlatlarning ta‘lim tizimlari namuna sifatida olinib, bizning xalqimiz imkoniyatlariva yutuqlariga mos holda yangi ta‘lim tizimi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda ilm – fanga prezidentimiz tomonidan alohida e‘tibor berilmoqda [1-4]. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta‘lim tarbiya sohasi bo‘lib, uning rivoji siyosiy–huquqiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarga bevosita tasir etadi hamdaijtimoiy sohalar me‘yoriy mohiyatini, kamolot darajasini belgilab beradi.

Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma‘no mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib,uni quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchiidan, yangi ta‘lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlar zamonaviy kasb sohalarining paydo bo‘lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog‘liqligidir;

Ikkinchiidan, ta‘lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy sohasini keyingi bosqichga uzatadi;

Uchinchiidan, ta‘lim inson shaxsining intellektual-ma‘naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan harakterlar yig‘indisi bo‘lib, ma‘rifiy hamda bilim berishni anglatadi;

To‘rtinchiidan, fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli. U katta ilmiy salohiyatini, ijodiy kuch-quvvatini birlashtirib, ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ana shu talab va vazifalardan kelib chiqib tanlandi. Ma‘lumki, sonlar nazariyasining additiv masalalarini tekshirishda trigonometrik yig‘indilarni baholash muhim ahamiyatga ega. Bunday

additiv masalalarga misol sifatida XVIII-asrning o'rtalaridan buyon ma'lum bo'lgan Varing, Eylar-Goldbax, Xardi-Littlvud, Xua-Lo-Ken problemalarini ko'rsatish mumkin. Birinchi bo'lib trigonometrik yig'indilarning trivial bo'lmagan bahosini Veyl va Vinogradovlar olgan [5-8]. Biz bu yerda yuqorida keltirilgan muammolardan ikkitasi:

Varing va Goldbax muammolariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Varing muammosi. Fransuz matematigi J.L.Lagranj (Giuseppe Lodovico Lagrangia (1736-1813)) 1770 yilda quyidagi teoremani isbotlaydi: "Har qanday natural sonni to'rtta butun son kvadratlari yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin". Bu teoremadagi tasdiq birinchi bo'lib Diofantning "Arifmetika" sida keltirilgan [9]. Uning isbotini Lagranj qilgan [10].

1770-yilda ingliz matematigi Varing (Edward Waring (1734-1798)) to'rt kvadratlar yig'indisi haqidagi J.L.Lagranj teoremasini umumlashtirishni taklif qildi va bu keyinchalik Varing muammosi deb nomlandi. Zamonaviy terminologiyada, Varingning tasdiqlarida berilgan $k \geq 2$ soni uchun shunday natural son $s = s(k)$ mavjudki, har bir natural son n , $s = s(k)$ ta manfiy bo'lmagan butun sonlarning yig'indisidan iborat bo'ladi, ya'ni n ni

$$n = n_1^k + n_2^k + \dots + n_s^k \quad (1)$$

korinishda ifodalash mumkin. Berilgan k uchun (1) tenglikni qanoatlantiruvchi chekli s ning mavjudligi 1909-yilda nemis matematigi Gilbert (David Hilbert (1862-1943)) tomonidan isbotlangan.

Goldbax muammosi. Nemis matematigi Xristian Goldbax (*Christian Goldbach* (1690-1764) nomi bilan yuritiladigan Goldbax muammosi birinchi marta 1742-yilda Goldbax va Shvetsariyalik nemis matematigi Eylar (*Leonhard Euler* 1707-1783) o'rtasida yozishmalarda paydo bo'lgan. 1742 yilda Xristian Goldbax Leonard Eylarga yozgan xatida quyidagi taxmini aytadi: har bir 5 dan katta toq sonni 3 ta tub sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin.

Eylar bu masala bilan qiziqib bundanda kuchliroq taxmini ilgari suradi: har bir 2 dan katta juft sonni 2 ta tub sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin.

Birinchi tasdiq Goldbaxning ternar problemi, ikkinchisi esa Goldbaxning binar problemi (yoki Eyer problemi) deb ataladi [11].

Trigonometrik yig'indilarning umumiy ko'rinishi $S = \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i f(x)}$ dan

iborat bo'lib, $f(x) = \alpha_k x^k + \alpha_{k-1} x^{k-1} + \dots + \alpha_1 x + \alpha_0$ haqiqiy koeffitsiyentli ko'phad, Q, P -lar natural sonlar. Uning trivial bahosi $|S| \leq P$ dan iborat. Bu trigonometrik yig'indining trivial bo'lmagan bahosi muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi izlanishlar davom etmoqda, chunki yuqorida sanab o'tilgan masalalarning birortasi ham to'la o'z yechimini topmagan. Shuning uchun ham bu sohadagi izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Ushbu tadqiqot ishining ob'yekti, trigonometrik yig'indilar, algebraik metodlar, Eyer funksiyasi, Myobus funksiyasi va sonlar nazariyasining ba'zi additiv masalalari, ularni yechish metodlari, olingan baholar tahlili hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti bo'lib, sonlar nazariyasining bir nechta additiv masalalarini trigonometrik yig'indilar orqali tatbiqi, olingan baholar va bunda olingan natijalar tahlili.

Ishning maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi

trigonometrik yig'indilarni sonlar nazariyasining ba'zi additiv masalalarini yechishga tatbiq qilishdan iboratdir.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- Birinchi darajali va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni baholash ;
- Trigonometrik yig'indilarning berilgan oraliqdagi n -darajali chegirmalar sonini aniqlashga tatbiq qilish;
- Effektiv baholardagi o'zgarmaslarning boshqa parametrlar bilan bog'liklik ifodasini keltirib chiqarish;
- Sonli baholar olish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Sonlar nazariyasida g - eng kichik musbat boshlang'ich ildizni yuqoridan baholash muhim ahamiyatga ega.

B. I. Segallarning va I. M. Vinogradov ishlarida bunday baho mavjud. Ular yetarlicha katta p tub soni va ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $g = O\left(p^{\frac{1}{2}+\varepsilon}\right)$ ekanligini isbotlaganlar. g uchun olingan bahoda “ O ” -simvoli qatnashganligi uchun undan aniq sonli hisoblashlarda foydalanib bo‘lmaydi. Ushbu ishda g uchun “ O ”-simvoliga bog‘liq bo‘lmagan aniqlashtirilgan $g \leq \left(4^k \sqrt{p} \ln p\right) + 1$ baho isbotlangan. Bu yerda k soni $p-1$ ning tub bo‘luvchilari soni. Olingan natija yuqoridagi shu boradagi natijaning son qiymati jihatdan yaxshilanganidir.

Trigonometrik yig‘indilarni taqqoslamalar sonini topishga va trigonometrik yig‘indilarni berilgan oraliqdagi n -darajali chegirmalar sonini aniqlashga tadbiiq etilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida quyidagi asosiy masalalar qaraldi:

- n -darajali trigonometrik yig‘indilarni baholash va chegirmalar sonini topishga tatbiiq etish
- Natural sonlar bo‘yicha olingan trigonometrik yig‘indilarning ketma-ketliklar kasr qismlarining taqsimlanishini baholashga tatbiiq
- Tub sonlar bo‘yicha olingan trigonometrik yig‘indilarning additiv masalalarni yechishda tatbiiq
- Sonlar nazariyasining bir qancha yechimini topgan va hali to‘la yechimini topmagan masalalarini o‘rganish oldindan olingan natija va baholarni o‘rganib tahlil qilish.

Tadqiqotning ishlab chiqilgan ilmiy takliflari va amaliy tavsiyalari natijasida sonlar nazariyasining ko‘plab additiv masalalarini trigonometrik yig‘indilarning baholari orqali yechish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharxi. Magistrlik tadqiqot ishini o‘rganish davomida quyidagi adabiyotlardan foydalanildi. I. Allakov [5] , Карацуба А.А. Основы аналитической теории чисел.- М.:Наука,1975.–182 с. Девенпорт Г. Мультипликативная теории чисел.-М: “Наука” 1971г. Чудаков

Н.Г. Введение в теорию функций Дирихле.-М: Гостехиздат.1947г. Pintz J., Elementary methods in the of L-functions v. The theorems of Landau and Page, Acta Arith., 32 (2), 1977, 163-171. Allakov I., Erdanov B.X., Erkinova D.A. Eng kichik musbat boshlang'ich ildizni trigonometrik yig'indilar yordamida yuqoridan baholash. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2024. №5. 103-106 b. Allakov I., Erdanov B.X., Erkinova D.A. Application of trigonometric sums to the estimation of the smallest positive initial root. Journal of Theory, Mathematics and Physics. Vol. 3, № 03,2024. 11-16 b. Erkinova D.A. Arifmetik progressiyadagi tub sonlar bo'yicha olingan chiziqli va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni baholash. Journal of Theory, Mathematics and Physics. Vol. 3, № 03,2024. 1-6 b. Erkinova D.A. Birinchi va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni baholash va ularning tadbiqlariga doir. Algebra va analizning dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Termiz-2022. 18-19 noyabr. 25-26 b.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, monografik kuzatish, taqqoslash, induksiya va deduksiya, statik guruhlash, tizimli tahlil, usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotda olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati: Dissertatsiya ishi ilmiy – nazariy xarakterda bo'lib, matematikaning turli additiv masalalarini yechishda, xususan, qo'shiluvchilar soni chegaralangan bo'lgandagi Varing muammosini, Goldbax muammosini, Xarde–Littlvud muammosini, Xua – Lo – Ken muammosini hamda ularning umumlashmalarini yechishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiya tuzilmasining tavsifi: Dissertatsiya ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning o'rganilganlik darajasi va dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, ishning sinovdan o'tishi, masala tarixi, adabiyotlar tahlili qisqacha berilgan, dissertatsiya ishida qilingan ishlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan va asosiy olingan natijalar bayoni keltirilgan.

Birinchi bob trigonometrik yig'indilarning berilgan oraliqdagi n -darajali

chegirmalar sonini aniqlashga tadbiqlari deb ataladi va 3 ta paragrafni o'z ichiga oladi, bu bobda birinchi va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni baholari keltirilgan. Bundan tashqari n - darajali trigonometrik yig'indilar baholari olib uni chegirmalar sonini aniqlashga tatbiq etilgan. Bu mavzular yordamchi xarakterga ega, undagi ta'rif va teoremlardan keying bobda foydalaniladi.

Ikkinchi bob natural sonlar bo'yicha olingan trigonometrik yig'indilarning additiv masalalarni yechishga tadbiqlari deb nomlangan va 3 ta paragrafni o'z ichiga oladi, bu bobda Veyl teoremasi, uning isboti va tatbiqlari, Veyl teoremasi tipidagi teoremlarning Varing masalasiga tatbiqlari, ketma ketliklar kasr qismlarining taqsimlanishini baholashda tadbiqlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi tub sonlar bo'yicha olingan trigonometrik yig'indilarning additiv masalalarni yechishda tadbiqlari deb atalgan va 3 ta paragrafni o'z ichiga oladi, bu bobda Vinogradov teoremasi va uning isboti, tub sonlar bo'yicha olingan birinchi darajali trigonometrik yig'indilarning baholari, va uni additiv masalalarni yechishga tatbiqlari keltirilgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 90 betdan iborat.

I BOB. TRIGONOMETRIK YIG'INDILARNING BERILGAN ORALIQDAGI n - DARAJALI CHEGIRMALAR SONINI ANIQLASHGA TATBIQL.

1.1-§. Birinchi va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni baholash

Ma'lumki, sonlar nazariyasining additiv masalalarini tekshirishda trigonometrik yig'indilarni baholash muhim ahamiyatga ega. Bunday additiv masalalarga misol sifatida XVIII asrning o'rtalaridan buyon ma'lum bo'lgan Varing, Eyler-Goldbax, Xardi-Litllvud, Xua-Lo-Ken problemalarini ko'rsatish mumkin. Birinchi bo'lib trigonometrik yig'indilarning trivial bo'lmagan bahosini Veyl va Vinogradovlar olgan.

Ushbu

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i \frac{ax}{m}}$$

yig'indini qaraymiz. Bunda a – butun son, m -natural son. S_1 yig'indidagi $e^{2\pi i \xi} = \cos 2\pi \xi + i \sin 2\pi \xi$ ko'rinishdagi funksiya davriy bo'lib uning davri 1 ga teng, ya'ni $e^{2\pi i(\xi+1)} = e^{2\pi i \xi} \cdot e^{2\pi i} = e^{2\pi i \xi}$

Bundan agar $x \equiv y \pmod{m}$ ya'ni $x = y + mt, t \in \mathbb{Z}$ bo'lsa, u holda

$$e^{2\pi i \frac{ax}{m}} = e^{2\pi i \frac{a(y+mt)}{m}} = e^{2\pi i \frac{ay}{m}} \cdot e^{2\pi i at} = e^{2\pi i \frac{ay}{m}}$$

ekanligi kelib chiqadi. Agarda S_1 yig'indida a soni m ga bo'linsa (a/m), u holda $a = mt$ va

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i tx} = 1 + e^{2\pi i t} + e^{2\pi i (2t)} + \dots + e^{2\pi i (m-1)t} = \underbrace{1 + 1 + \dots + 1}_m = m,$$

bo'ladi. Agarda S_1 yig'indida a soni m ga bo'linmasa ($a \nmid m$), u holda

$$S_1 = 1 + e^{2\pi i \frac{a}{m}} + \dots + e^{2\pi i \frac{a(m-1)}{m}} = \frac{1 - \left(e^{2\pi i \frac{a}{m}} \right)^m}{1 - e^{2\pi i \frac{a}{m}}} = \frac{1 - e^{2\pi i a}}{1 - e^{2\pi i \frac{a}{m}}} = 0.$$

Shunday qilib,

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i \frac{ax}{m}} = \begin{cases} m, & \text{agar } a / m, \\ 0, & \text{agar } a \nmid m, \end{cases} \quad (1.1.1)$$

ekanligini isbotladik.

Yuqorida qaralgan trigonometrik yig'indni

$$ax \equiv b \pmod{m} \quad (1.1.2)$$

taqqoslamaning yechimlar soni T ni aniqlashga tatbiq etish mumkin. Buning uchun (1.1.2) dan foydalanib T ni quyidagicha yozib olish mumkin.

$$T = \frac{1}{m} \sum_{x=0}^{m-1} \sum_{y=0}^{m-1} e^{2\pi i \frac{(ax-b)y}{m}}. \quad (1.1.3)$$

(1.1.3) da agar (1.1.2) taqqoslama yechimga ega bo'lsa, $ax - b \equiv 0 \pmod{m}$ ya'ni $(ax - b) / m$, qolgan hollarda $(ax - b) \nmid m$ bajariladi. (1.1.3) da $d = (a, m)$, $a = a_1 \cdot d$, $m = m_1 \cdot d$ deb olib yig'ish tartibini o'zgartirsak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} T &= \sum_{x=0}^{m-1} e^{-2\pi i \frac{by}{m}} \frac{1}{m_1 d} \sum_{x=0}^{m_1 d - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} = \sum_{y=0}^{m-1} e^{-2\pi i \frac{by}{m}} \frac{1}{m_1 d} \times \\ &\times \left(\sum_{x=0}^{m_1 - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} + \sum_{x=m_1}^{2m_1 - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} + \dots + \sum_{x=(d-1)m_1}^{m_1 d - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} \right) = \\ &= \sum_{x=0}^{m-1} e^{-2\pi i \frac{by}{m}} \frac{1}{m_1 d} \sum_{x=0}^{m_1 - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} = \sum_{y=0}^{m-1} e^{-2\pi i \frac{by}{m}} \frac{1}{m_1} \sum_{x=0}^{m_1 - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}}. \end{aligned}$$

Bu yerda $(a_1, m_1) = 1$ bo'lgani uchun (1.1.1) ga ko'ra

$$\frac{1}{m_1} \sum_{x=0}^{m_1 - 1} e^{2\pi i \frac{a_1 xy}{m_1}} = \begin{cases} 1, & \text{agar } y / m_1, \\ 0, & \text{agar } y \nmid m_1 \end{cases}$$

Shuning uchun ham yuqoridagi yig'indida faqat y / m_1 hadlar qoladi, qolgan hadlar nolga teng. Shunday qilib, $y = km_1$ deb olsak, $0 \leq km_1 \leq dm_1 - 1$, ya'ni $0 \leq k \leq d - 1$ va

$$T = \sum_{k=0}^{d-1} e^{-2\pi i \frac{bk m_1}{m}} = \sum_{k=0}^{d-1} e^{-2\pi i \frac{bk}{m_1}} = \begin{cases} d, & \text{agar } b / d, \\ 0, & \text{agar } b \neq d. \end{cases}$$

Bizga ma'lumki, agar $d = (a, m)$ bo'lib b / d bo'lsa, (1.1.2) taqqoslama d ta yechimga ega bo'ladi, agarda $b \neq d$ bo'lsa, (1.1.2) taqqoslama birorta ham yechimga ega emas edi.

Yuqorida qarab chiqilgan usul unchalik ham sodda bo'lmasada, u trigonometrik yig'indilardan foydalanib arifmetik masalalarni yechish mumkin ekanligining yoqqol namunasiidir.

Trigonometrik yig'indilarning ba'zi bir xususiy hollardagina aniq qiymatini topish mumkin. Ko'pchilik hollarda esa uning modulining mumkin qadar aniqroq yuqori chegarasini topish masalasi qo'yiladi. Ana shu chegarani topishni biz bundan keyin trigonometrik yig'indilarni baholash, chegaraning o'ziga esa trigonometrik yig'indining bahosi deb ataladi.

Tushunarliki,

$$S_1 = \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i f(x)},$$

yig'indi uchun trivial (o'z-o'zidan tushunarli bo'lgan) baho $|S| \leq P$ dan iborat.

Bu yerda $f(x)$ haqiqiy koeffitsiyentli ko'phad.

Sonlar nazariyasining ko'pchilik masalalarini yechishda trigonometrik yig'indilarning trivial bahosidan ko'ra aniqroq bahosini topish talab etiladi.

Endi, S_1 dan ko'ra umumiyroq ushbu

$$\sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i \alpha x}, \tag{1.1.4}$$

yig'indini baholashni qaraymiz. Bunda α –ixtiyoriy haqiqiy son, Q -butun son, P - butun musbat son.

Avvalo, ixtiyoriy ξ haqiqiy soni uchun

$$|\sin \pi \xi| \geq 2 \|\xi\|, \tag{1.1.5}$$

ning bajarilishini ko'rsatamiz. Bunda $\|\xi\|$ -bilan ξ dan unga eng yaqin turgan butun songacha bo'lgan masofa belgilangan.

(1.1.5) ning ikkala tomoni ham juft va davriy funksiya bo'lib, davri 1 ga teng. Shuning uchun ham $0 \leq \xi \leq \frac{1}{2}$ bo'lganda $\sin \pi \xi \geq 2\xi$ ning bajarilishini ko'rsatish yetarli. $f(\xi) = \sin \pi \xi - 2\xi$ funksiyaning qaraymiz. Bu funksiya $\xi = 0$ va $\xi = \frac{1}{2}$ da nolga aylanadi. Uning hosilasi $f'(\xi) = \pi \cos \pi \xi - 2$ bo'lib ξ ning faqat bitta qiymatida nolga aylanadi. $f(\xi)$ ning ikkinchi hosilasi $f''(\xi) = -\pi^2 \sin \pi \xi$ bo'lib $0 < \xi < \frac{1}{2}$ da $f''(\xi) < 0$. Demak, $0 \leq \xi \leq \frac{1}{2}$ bo'lganda $f(\xi) \geq 0$ va shuning uchun ham $\sin \pi \xi \geq 2\xi$ bajariladi.

(1.1.5) dan foydalanib, qaralayotgan yig'indini quyidagicha baholash mumkin:

$$\left| \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i \alpha x} \right| = \left| \frac{e^{2\pi i \alpha (Q+P+1)} - e^{2\pi i \alpha (Q+1)}}{e^{2\pi i \alpha} - 1} \right| \leq \frac{2}{|e^{2\pi i \alpha} - 1|} \leq \frac{2}{|e^{\pi i \alpha} - e^{-\pi i \alpha}|} = \frac{1}{|\sin \pi \alpha|} \leq \frac{1}{2\|\alpha\|}.$$

Shunday qilib,

$$\left| \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i \alpha x} \right| \leq \min \left(P; \frac{1}{2\|\alpha\|} \right). \quad (1.1.6)$$

Bundan keyin biz

$$S = \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i f(x)},$$

yig'indida quyidagi 2 ta holni bir biridan farqlaymiz:

1). $f(x) = \frac{a}{q} x^n$, $(a, q) = 1$ bo'lib S yig'indida x o'zgaruvchi q moduli

bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasidagi barcha qiymatlarni qabul qiladi.

Bu holda $x = 0, 1, 2, \dots, q-1$ qiymatlarni qabul qiladi deb qarash mumkin. Shuning uchun ham bu holda

$$S = \sum_{x=0}^{q-1} e^{\frac{2\pi i a x^n}{q}}, (a, q) = 1, \quad (1.1.7)$$

yig'indiga ega bo'lamiz. Bu yig'indiga ratsional trigonometrik yig'indi deb ataladi.

2). $f(x) = \alpha_0 x^n + \alpha_1 x^{n-1} + \dots + \alpha_{n-1} x + \alpha_n$ bo'lib, $\alpha_0 \neq 0, \alpha_1, \dots, \alpha_{n-1}, \alpha_n$ lar haqiqiy sonlar va $x = Q+1, Q+2, \dots, Q+P$ qiymatlarni qabul qiladi. $Q, P > 0$ lar butun sonlar. Shunday qilib, bu holda

$$S_n = \sum_{x=Q+1}^{Q+P} e^{2\pi i f(x)},$$

yig'indiga ega bo'lamiz. Bunday yig'indiga H. Veyl yig'indisi deyiladi.

Ikkala holda ham n soniga S_n yig'indining tartibi deyiladi.

Yuqorida biz qaragan S_1 yig'indi 1-tartibli ratsional trigonometrik yig'indi, (1.1.4) esa 1-tartibli Veyl yig'indisi ekan.

Ikkinchi tartibli ratsional trigonometrik yig'indilarni hisoblash. Ushbu

$$S_2 = \sum_{x=0}^{q-1} e^{\frac{2\pi i a x^2}{q}}, (a, q) = 1,$$

yig'indini qaraymiz. Bu yig'indini birinchi bo'lib K.F.Gauss to'la tekshirganligi sababli u Gauss yig'indisi deb ataladi. S_2 yig'indiga qo'shma kompleks bo'lgan yig'indini \bar{S}_2 deb belgilasak, u holda

$$\begin{aligned} |S_2|^2 &= S_2 \cdot \bar{S}_2 = \sum_{x_1=0}^{q-1} e^{\frac{2\pi i a x_1^2}{q}} \cdot \sum_{x_2=0}^{q-1} e^{-\frac{2\pi i a x_2^2}{q}} = \\ &= \sum_{x_1=0}^{q-1} \sum_{x_2=0}^{q-1} e^{\frac{2\pi i a (x_1^2 - x_2^2)}{q}} = \sum_{y_1} \sum_{y_2} e^{\frac{2\pi i a (y_1^2 - y_2^2)}{q}}. \end{aligned}$$

Bu yerda y_1, y_2 lar q moduli bo'yicha chegirmalarning istalgan to'la sistemasini qabul qiladi. $y_1 = y + t$ deb olib t ni y ga bog'liq bo'lmagan holda q moduli bo'yicha chegirmalarning istalgan to'la sistemasini qabul qilsa, $y + t$ (y fiksirlangan bo'lganda) ham shu sistemani qabul qiladi. Shuning uchun ham

$$|S_2|^2 = \sum_{y+t} \sum_y e^{\frac{2\pi i a}{q}((y+t)^2 - y^2)} = \sum_t e^{\frac{2\pi i a}{q}t^2} \cdot \sum_y e^{\frac{2\pi i a}{q}2yt}. \quad (1.1.8)$$

Faraz etaylik avvalo q toq son bo'lsin. U holda $(2a, q) = 1$ va (1.1.1) formulaga asosan

$$\sum_y e^{\frac{2\pi i a}{q}2yt} = \begin{cases} q, & \text{agar } t / q, \\ 0, & \text{agar } t \neq q. \end{cases}$$

Demak, (1.1.8) ning o'ng tomonida faqat $t = 0$ bo'lgan had noldan farqli va

$$|S_2|^2 = e^{\frac{2\pi i a}{q}0^2} \cdot q = q, \text{ ya'ni } |S_2| = \sqrt{q}. \quad (1.1.9)$$

Endi faraz etaylik q juft son bo'lsin. U holda $q = 2q_1$ deb olib (1.1.8) dan quyidagini hosil qilamiz.

$$|S_2|^2 = \sum_t e^{\frac{2\pi i a}{2q_1}t^2} \cdot \sum_y e^{\frac{2\pi i a}{2q_1}2yt} = 2 \sum_t e^{\frac{2\pi i a}{2q_1}t^2} \cdot \sum_{y_1} e^{\frac{2\pi i a}{q_1}y_1t}.$$

Bu yerda y_1 o'zgaruvchi q_1 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini qabul qiladi. t ning $t = 0, 1, 2, \dots, q_1, q_1 + 1, \dots, 2q_1 - 1 = q - 1$ qiymatlari orasida faqat ikkitasi $t = 0$ va $t = q_1$ lar q_1 ga bo'linadi. Shuning uchun (1.1.1) ga asosan

$$|S_2|^2 = 2 \left(e^{\frac{2\pi i a}{2q_1}0^2} + e^{\frac{2\pi i a}{2q_1}q_1^2} \right) \cdot q_1 = 2 \left(1 + e^{\frac{2\pi i a}{2}q_1} \right) \cdot q_1.$$

Bunda

$$e^{\frac{2\pi i a}{2}q_1} = \begin{cases} 1, & \text{agar } q_1 \text{ juft son bo'lsa,} \\ -1, & \text{agar } q_1 \text{ toq son bo'lsa.} \end{cases}$$

Demak, $|S_2|^2 \leq 4q_1 = 2q$ yoki bundan

$$|S_2| \leq \sqrt{2q} \quad (1.1.10)$$

(1.1.9) va (1.1.10) dan hamma vaqt $|S_2| \leq \sqrt{2q}$ ning o'rinli ekanligi kelib chiqadi. Agar $p > 2$ - tub son bo'lsa, (1.1.9) ga asosan

$$|S_2| = \sqrt{p} \quad (1.1.11)$$

o‘rinli bo‘ladi.

1.2-§. n-darajali trigonometrik yig‘indilarni baholash.

Ikkinchi tartibli ratsional trigonometrik yig‘indilarning berilgan oraliqdagi kvadratik chegirmalar va chegirma emaslar sonini aniqlashga tatbiqu.

Faraz etaylik, $p > 2$ -tub son, $Q(< P)$ -musbat butun son, R -esa $1, 2, \dots, Q$ sonlari orasidagi kvadratik chegirmalar soni, N - shu sonlar orasidagi kvadratik chegirma emaslar soni bo‘lsin. Bu yerda quyidagi teorema isbotlaymiz.

1.2.1-teorema. Ushbu formulalar o‘rinli:

$$R = \frac{Q}{2} + \frac{\theta}{2} \sqrt{p} \ln p \quad (1.2.1)$$

$$N = \frac{Q}{2} - \frac{\theta}{2} \sqrt{p} \ln p, \quad (1.2.2)$$

bu yerda $\theta \in (-1; 1)$ haqiqiy son.

Bu teoremani isbotlashda quyidagi lemmadan foydalanamiz.

1.2.1-lemma. Agar $m > 1$, M, N -butun sonlar va $M < N$ bo‘lsa, u holda

$$\Omega = \sum_{a=1}^{m-1} \left| \sum_{x=M}^N e^{\frac{2\pi i ax}{m}} \right| < m \ln m \quad (1.2.3)$$

tengsizlik o‘rinli.

Isboti. (1.1.6)-formulada $\alpha = \frac{a}{m}$, $Q+1 = M$, $Q+P = N$ deb olsak, u

holda $a \neq m$ bo‘lgani uchun

$$\left| \sum_{x=M}^N e^{\frac{2\pi i ax}{m}} \right| \leq \frac{1}{2 \left\| \frac{a}{m} \right\|}$$

hosil bo‘ladi. Agarda $1 \leq a \leq \frac{m}{2}$ bo‘lsa, u holda $\left\| \frac{a}{m} \right\| = \frac{a}{m}$ va

$\frac{m}{2} < a \leq m-1$ bo‘lsa, u holda $\left\| \frac{a}{m} \right\| = 1 - \frac{a}{m} = \frac{m-a}{m}$ bo‘ladi. Shuning uchun

ham juft m lar uchun

$$\begin{aligned} \Omega &\leq \sum_{a=1}^{m-1} \frac{1}{2 \left\| \frac{a}{m} \right\|} = \sum_{a=1}^{\frac{m}{2}} \frac{m}{2a} + \sum_{a=\frac{m}{2}+1}^{m-1} \frac{m}{2(m-a)} = \frac{m}{2} \times \\ &\times \left(\sum_{a=1}^{\frac{m}{2}} \frac{1}{a} + \sum_{a=\frac{m}{2}+1}^{m-1} \frac{1}{(m-a)} \right) = \frac{m}{2} \left(\left(\sum_{a=1}^{\frac{m-1}{2}} \frac{1}{a} + \left(\sum_{a_1=1}^{\frac{m-1}{2}} \frac{1}{a_1} + \frac{2}{m} \right) \right) \right) = m \left(\sum_{a=1}^{\frac{m}{2}} \frac{1}{a} + \frac{1}{m} \right) \end{aligned}$$

Ma’lumki, $0 < x < 1$ da

$$\ln \frac{1+x}{1-x} = \ln(1+x) - \ln(1-x) = 2\left(x + \frac{x^3}{3} + \dots\right) > 2x.$$

Agar bunda $2x = \frac{1}{a}$ deb olsak, $\frac{1}{a} < \ln \frac{2a+1}{2a-1}$ bo‘ladi. Demak,

$$\Omega < m \left(\sum_{a=1}^{\frac{m-1}{2}} \ln \frac{2a+1}{2a-1} + \ln \frac{2m+1}{2m-1} \right).$$

Bunda

$$\sum_{a=1}^{\frac{m-1}{2}} \ln \frac{2a+1}{2a-1} + \ln \frac{2m+1}{2m-1} = \ln \frac{3}{1} + \ln \frac{5}{3} + \ln \frac{7}{5} + \dots + \ln \frac{m-1}{m-3} + \ln \frac{2m+1}{2m-1} =$$

$$\ln(m-1) + \ln \frac{2m-1+2}{2m-1} = \ln(m-1) + \ln \left(1 + \frac{2}{2m-1} \right)$$

$$\ln \left(m-1 + \frac{2(m-1)}{2m-1} \right) < \ln m$$

bo‘lganligi sababli $\Omega < m \ln m$ ni hosil qilamiz.

Endi 1.2.1-teoremani isbotlaymiz. Buning uchun

$$S = \sum_{z=1}^Q \sum_{x=0}^{p-1} \sum_{a=0}^{p-1} e^{\frac{2\pi i a(x^2-z)}{p}},$$

yig'indini qaraymiz. Agarda z kvadratik chegirma bo'lsa, $x^2 \equiv z \pmod{p}$ taqqoslama 2 ta yechimga ega. Shuning uchun ham

$$S = 2pR \quad (1.2.4)$$

Ikkinchi tomondan esa $a=0$ ga mos hadni ajratib olib S ni quyidagicha yozish mumkin:

$$S = pQ + T \quad (1.2.5)$$

bunda

$$T = \sum_{z=1}^Q \sum_{x=0}^{p-1} \sum_{a=0}^{p-1} e^{2\pi i \frac{a(x^2-z)}{p}}$$

Endi T ni baholaymiz:

$$|T| \leq \sum_{a=1}^{p-1} \left| \sum_{x=0}^{p-1} e^{2\pi i \frac{ax^2}{p}} \right| \cdot \left| \sum_{z=1}^Q e^{-2\pi i \frac{z}{p}} \right|.$$

Buning o'ng tomonida avvalo (1.1.11) tenglikdan foydalanib keyin 1.2.1-lemmani qo'llasak $|T| < p\sqrt{p} \ln p$ ga ega bo'lamiz. Bundan va (1.2.5) dan

$$S < pQ + p\sqrt{p} \ln p \quad (1.2.6)$$

tengsizlik kelib chiqadi. (1.2.6) dan (1.2.4) ga asosan

$$R < \frac{1}{2}Q + \frac{1}{2}\sqrt{p} \ln p \quad (1.2.7)$$

Tushunarliki $N = Q - R$. Shuning uchun ham (1.2.7) ga ko'ra

$$R > \frac{1}{2}Q - \frac{1}{2}\sqrt{p} \ln p \quad (1.2.8)$$

(1.2.7) va (1.2.8) lardan mos ravishda (1.2.1) va (1.2.2) baholar kelib chiqadi.

Natija. p tub moduli bo'yicha eng kichik musbat kvadratik chegirma emas $\left[\sqrt{p} \ln p \right] + 1$ dan katta emas. Bu yerda $[x]$ ifoda x ning butun qismini bildiradi.

Isboti. Haqiqatan ham, agarda $Q > \sqrt{p} \ln p$ bo'lsa, (1.2.8) dan $N > 0$ kelib chiqadi. Bu esa $2, 3, \dots, \left[\sqrt{p} \ln p \right] + 1$ sonlari orasida kamida birta p -tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma emas mavjud degani.

1.2.2 Yetarlicha katta p lar uchun yuqoridagi natijani yaxshilash mumkin. endi biz shu bilan shug'ullanamiz.

Buning uchun bizga quyidagi lemma kerak bo'ladi.

1.2.2-lemma. Agar $n \geq 3$ va p tub son bo'lsa, ushbu

$$\eta(n) \sum_{p \leq n} \frac{\ln p}{p} < \ln n + 3,5816 + \frac{1}{2n} \ln 2\pi n + \frac{1}{12n^2},$$

tengsizlik o'rinli.

Isboti. Ma'lumki, $n!$ da p tub soni

$$\alpha_p = \left[\frac{n}{p} \right] + \left[\frac{n}{p^2} \right] + \dots + \left[\frac{n}{p^k} \right], \quad (p^k \leq n),$$

daraja bilan qatnashadi, ya'ni $n!$ ning tub ko'paytuvchilarga yoyilmasi

$$n! = \prod_{p \leq n} p^{\alpha_p},$$

dan iborat. Bu yoyilmaning ikkala tomonini logarifmlasak

$$\ln n! = \sum_{p \leq n} \alpha_p \ln p,$$

hosil bo'ladi. Bu yerda Stirling formulasiga ko'ra

$$n! = \sqrt{2\pi n} n^{n+\frac{1}{2}} e^{-\left(n+\frac{\theta}{12n}\right)}, \quad 0 < \theta < 1,$$

bo'lgani uchun

$$\ln n! = \frac{1}{2} \ln 2\pi + \left(n + \frac{1}{2} \right) \ln n - n + \frac{\theta}{12n}$$

bo'ladi. Shunday qilib,

$$n \ln n - n + \frac{1}{2} \ln n + \frac{1}{2} \ln 2\pi + \frac{\theta}{12n} = \sum_{p \leq n} \alpha_p \ln p,$$

yoki bundan

$$n(\ln n - 1) + \frac{1}{2} \ln n + \frac{1}{2} \ln 2\pi + \frac{\theta}{12n} = \sum_{p \leq n} \alpha_p \ln p \quad (1.2.9)$$

bu yerda

$$\sum_{p \leq n} \alpha_p \ln p = \sum_{p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p + \sum_{p \leq n} \left(\left[\frac{n}{p^2} \right] + \dots + \left[\frac{n}{p^k} \right] \right) \ln p \quad (1.2.10)$$

(1.2.10) ning o'ng tomonidagi ikkinchi qo'shiluvchini qaraymiz. $[x] \leq x$

bo'lgani uchun

$$\begin{aligned} 0 &\leq \sum_{p \leq n} \left(\left[\frac{n}{p^2} \right] + \dots + \left[\frac{n}{p^k} \right] \right) \ln p < n \sum_{p \leq n} \left(\frac{1}{p^2} + \frac{n}{p^3} + \dots \right) \ln p = \\ &n \sum_{p \leq n} \frac{1}{p^2} \ln p = n \sum_{p \leq n} \frac{\ln p}{p^2 - p} = n \left(\sum_{p \leq 20} \frac{\ln p}{p^2 - p} + \sum_{p > 20} \frac{\ln p}{p^2 - p} \right) < \\ &n \sum_{p \leq 20} \frac{\ln p}{p(p-1)} + \sum_{p > 23} \frac{\ln k}{k(k-1)} < 0,81n + n \int_{23}^{\infty} \frac{\ln \varepsilon}{\varepsilon^4} < 0,84n \end{aligned}$$

bajariladi. Shuning uchun ham (1.2.9) va (1.2.10) lardan

$$\sum_{p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p = n(\ln n - 1) + \frac{1}{2} \ln 2\pi n + \frac{\theta}{12n} + 0,84\theta_1 n. \quad (1.2.11)$$

Bunda $\left[\frac{n}{p} \right] = \frac{n}{p} - \left\{ \frac{n}{p} \right\}$.

(1.2.11)- tengsizlik n butun son bo'lmasdan haqiqiy son bo'lsa ham o'z

kuchini saqlab qoladi, chunki $\left[\frac{[n]}{p} \right] = \left[\frac{n}{p} \right]$ va $[n] \ln [n] < n \ln n$.

(1.2.11) da n ni $\frac{n}{2}$ bilan almashtirib quyidagini hosil qilamiz:

$$2 \sum_{p \leq \frac{n}{2}} \left[\frac{n}{2p} \right] \ln p = 2 \frac{n}{2} \left(\ln \frac{n}{2} - 1 \right) + \ln \frac{2n\pi}{2} + \frac{\theta}{6n} + 0,84\theta_1 \frac{n}{2}.$$

Bu tengsizliklardan

$$\sum_{p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p - 2 \sum_{p \leq \frac{n}{2}} \left[\frac{n}{2p} \right] \ln p = n \left(\ln n - \ln \frac{n}{2} \right) - \frac{1}{2} \ln \frac{\pi n}{2} + \theta \left(\frac{1}{6n^2} + 0.42 \right) n =$$

$$n \theta \left(\left(1 + \frac{1}{2n} \right) \ln 2 + \frac{1}{6n^2} + 0.42 \right) = n \theta \left(\frac{7}{6} \ln 2 + \frac{1}{54} + 0.42 \right) = 1.2472n\theta,$$

ga ega bo‘lamiz. Bu tenglikning chap tomonining shaklini o‘zgartirib yozib olamiz. U holda

$$\sum_{\frac{n}{2} < p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p + \sum_{p \leq \frac{n}{2}} \left(\frac{n}{p} - \left\{ \frac{n}{p} \right\} \right) \ln p - 2 \sum_{p \leq \frac{n}{2}} \left(\frac{n}{2p} - \left\{ \frac{n}{2p} \right\} \right) \ln p = 1.2472n\theta,$$

yoki bundan

$$\sum_{\frac{n}{2} < p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p + \sum_{p \leq \frac{n}{2}} U_p \ln p = 1.2472n\theta.$$

Bu yerda

$$U_p = 2 \cdot \left\{ \frac{n}{2p} \right\} - \left\{ \frac{n}{p} \right\}$$

va agar $\left\{ \frac{n}{2p} \right\} < \frac{1}{2}$ bo‘lsa, $U_p = 0$ agarda $\left\{ \frac{n}{2p} \right\} \geq \frac{1}{2}$ bo‘lsa, $U_p > 0$

Shunday qilib, oxirgi tenglikning chap tomonidagi ikkinchi qo‘shiluvchi manfiy emas. U holda uni tashlab yuborib birinchi qo‘shiluvchida $\left[\frac{n}{p} \right] = 1$

bo‘lgani uchun

$$\sum_{\frac{n}{2} < p \leq n} \ln p = 1.2472\theta n,$$

ni hosil qilamiz. Bundan esa

$$\sum_{\frac{n}{2} < p \leq n} \ln p = 1.2472\theta \frac{n}{2}, \quad \sum_{\frac{n}{8} < p \leq \frac{n}{4}} \ln p = 1.2472\theta \frac{n}{4}, \dots, \quad \sum_{\frac{n}{2^k} < p \leq \frac{n}{2^{k-1}}} \ln p = 1.2472\theta \frac{n}{2^{k-1}}.$$

larni hosil qilamiz. Agar k ni $2^k > lnn$ shartni qanoatlantiruvchi qilib olsak,

$$\sum_{p \leq \frac{n}{2^k}} \ln p < \frac{n}{2^k} \ln \frac{n}{2^k} < n,$$

bo'ladi. Bulardan

$$\begin{aligned} \sum_{p \leq n} \ln p &= 1.2472\theta \left(1 + \frac{1}{2} + \dots + \frac{n}{2^{k-1}} + 1 \right) n = 1.2472\theta \left(\frac{\frac{1}{2} \left(1 - \frac{1}{2^{k-1}} \right)}{1 - \frac{1}{2}} + 2 \right) n = \\ &= 1.2472\theta \left(3 - \frac{n}{2^{k-1}} \right) n = 3.7416\theta n \end{aligned} \quad (1.2.12)$$

Endi

$$\sum_{p \leq n} \left[\frac{n}{p} \right] \ln p \leq n \sum_{p \leq n} \frac{\ln p}{p} < \sum_{p \leq n} \left(\left[\frac{n}{p} \right] + 1 \right) \ln p$$

ekanligini e'tiborga olib (1.2.11) va (1.2.12) lardan

$$n \sum_{p \leq n} \frac{\ln p}{p} = n(\ln n - 1) \frac{1}{2} \ln 2\pi n + \frac{\theta}{12n} + 0.84\theta_1 n + 3.7416\theta n$$

yoki

$$\sum_{p \leq n} \frac{\ln p}{p} = \ln n + \frac{1}{2n} \ln 2\pi n + \frac{\theta}{12n^2} + 3.5816\theta_2.$$

Shunday qilib 1.2.2-lemma isbot bo'ldi.

Endi ushbu lemmani isbotlaymiz:

1.2.3-lemma. Agar $h > 2$ va $h^\alpha \leq g < h$, $0 < \alpha < 1$ bo'lsa, u holda

$$\sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} = \ln \frac{\ln h}{\ln g} + 12.7248\theta \cdot \frac{1}{\ln h}.$$

Isboti. p_{k+1} bilan g dan katta eng kichik tub sonni, p_{k+l} bilan esa $p_{k+l} \leq h$ shartni qanoatlantiruvchi eng katta tub sonni belgilaylik. U holda 2.2-lemmaga asosan

$$\sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} = \sum_{k=1}^l \frac{\ln p_{k+l}}{p_{k+l}} \cdot \frac{1}{\ln p_{k+l}}.$$

Bu yerda

$$\frac{\ln p_{k+i}}{p_{k+i}} = \eta(p_{k+i}) - \eta(p_{k+i-1})$$

ekanligidan foydalansak va o'ng tomoniga

$$\frac{\eta(p_{k+i})}{\ln h} - \frac{\eta(p_k)}{\ln g}$$

ni qo'shib ayirsak

$$\begin{aligned} \sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} &= (\eta(p_{k+1}) - \eta(p_k)) \cdot \frac{1}{\ln p_{k+1}} + \\ &+ (\eta(p_{k+2}) - \eta(p_{k+1})) \cdot \frac{1}{\ln p_{k+2}} + \dots + (\eta(p_{k+l}) - \eta(p_{k+l-1})) \cdot \frac{1}{\ln p_{k+l}} = \\ &\eta(p_k) \left(\frac{1}{\ln g} - \frac{1}{\ln p_{k+1}} \right) + \eta(p_{k+1}) \left(\frac{1}{\ln p_{k+1}} - \frac{1}{\ln p_{k+2}} \right) + \dots + \eta(p_{k+l-1}) \times \\ &\times \left(\frac{1}{\ln p_{k+l-1}} - \frac{1}{\ln p_{k+l}} \right) + \eta(p_{k+l}) \left(\frac{1}{\ln p_{k+l}} - \frac{1}{\ln h} \right) + \frac{\eta(p_{k+l})}{\ln h} - \frac{\eta(p_k)}{\ln g}, \end{aligned}$$

hosil bo'ladi. Bu yerdan

$$\sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} = \int_g^h \frac{\eta(t) dt}{t(\ln t)^2} + \frac{\eta(h)}{\ln h} - \frac{\eta(g)}{\ln g} \quad (1.2.13)$$

bunda

$$\eta(t) = \ln t + 4.2416\theta, \quad -1 < \theta < 1, \quad t \geq 3$$

Shuning uchun ham (1.2.13) dan

$$\begin{aligned} \sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} &= \int_g^h \frac{\eta dt}{t \ln t} + 4.2416\theta \int_g^h \frac{\eta dt}{t(\ln t)^2} + 1 + \frac{4.2416\theta}{\ln h} - 1 - \frac{4.2416\theta}{\ln g} = \\ &= \ln \left(\frac{\ln h}{\ln g} \right) + 4.2416\theta \left(\frac{1}{\ln \frac{\ln h}{\ln g}} + \frac{1}{\ln h} + \frac{1}{\ln g} \right). \end{aligned}$$

Bu yerda $h^\alpha \leq g < h$ ekanligini, ya'ni $\alpha \ln h \leq \ln g < \ln h$ ekanligini e'tiborga olsak

$$\sum_{g < p \leq h} \frac{1}{p} = \ln \left(\frac{\ln h}{\ln g} \right) + 12.7248\theta \frac{1}{\ln h}$$

hosil bo'ladi. Shuning bilan 1.2.3-lemma isbot bo'ldi.

Endi bu isbotlangan 1.2.3-lemmani quyidagi teoremani isbotlahga tatbiq qilamiz.

1.2.2-teorema. Yetarlicha katta p –tub sonlar uchun p –tub moduli bo‘yicha eng kichik kvadratik chegirma emas $T = p^{\frac{1}{2\sqrt{e}}} (\ln p)^2$ dan katta emas.

Isboti. Faraz etaylik $1, 2, \dots, T$ sonlarinig barchasi p - tub moduli bo‘yicha kvadratik chegirma bo‘lsin. U holda har bir $Q = \sqrt{p} (\ln p)^2$ -dan katta bo‘lmagan kvadratik chegirma emas $T < q \leq Q$ shartni qanoatlantiruvchi tub bo‘luvchi q ga ega bo‘lishi kerak. Haqiqatan ham, har bir kvadratik chegirma emasning tub bo‘luvchilari orasida kamida bitta kvadratik chegirma emas mavjud bo‘lishi kerak, chunki Lejandr simboliga ko‘ra

$$\left(\frac{a_1 \cdot a_2 \cdot \dots \cdot a_k}{p} \right) = \left(\frac{a_1}{p} \right) \cdot \left(\frac{a_2}{p} \right) \cdot \dots \cdot \left(\frac{a_k}{p} \right),$$

tenglik o‘rinli bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham Q dan katta bo‘lmagan kvadratik chegirma emaslar soni N quyidagi tengsizlikni qanoatlantiradi:

$$N \leq \sum_{T < q \leq Q} \left[\frac{Q}{q} \right] \leq Q \sum_{T < q \leq Q} \frac{1}{q}.$$

Bu munosabatning o‘ng tomonida $h = Q, g = T$ deb olib 2.3-lemmadan foydalansak

$$N \leq Q \ln \frac{\ln Q}{\ln T} + 12.7248 \cdot \frac{Q}{\ln Q} < Q \ln \frac{\frac{1}{2} \ln p + 2 \ln \ln p}{\frac{1}{2\sqrt{e}} \ln p + 2 \ln \ln p} + 12.7248 \cdot \frac{Q}{\ln Q} =$$

$$Q \left(\frac{1}{2} + \ln \frac{1 + \frac{4 \ln \ln p}{\ln p}}{1 + \frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p}} \right) + 12.7248 \cdot \frac{Q}{\ln Q}.$$

(1.2.14) ning o‘ng tomonida

$$\ln \frac{1 + \frac{4 \ln \ln p}{\ln p}}{1 + \frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p}} = \ln \left(1 + \frac{4 \ln \ln p}{\ln p} \right) - \ln \left(1 + \frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p} \right),$$

deb yozib olib $-1 < x < 1$ da

$$\ln(1+x) = x - \frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{3} + \dots + (-1)^{n-1} \frac{x^n}{n} + \dots$$

ekanligidan foydalanamiz. U holda yetarlicha katta p – tub sonlar uchun

$$\begin{aligned} \ln \left(1 + \frac{4 \ln \ln p}{\ln p} \right) - \ln \left(1 + \frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p} \right) &= \left(\frac{4 \ln \ln p}{\ln p} - \frac{1}{2} \left(\frac{4 \ln \ln p}{\ln p} \right)^2 + \dots \right) - \\ &\left(\frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p} - \frac{1}{2} \left(\frac{4\sqrt{e} \ln \ln p}{\ln p} \right)^2 + \dots \right) = (4 - 4\sqrt{e}) \frac{\ln \ln p}{\ln p} + \frac{16e - 16}{2} \left(\frac{\ln \ln p}{\ln p} \right)^2 = \\ &(4 - 4\sqrt{e}) \frac{\ln \ln p}{\ln p} + \frac{16e - 16}{2} \left(\frac{\ln \ln p}{\ln p} \right)^2 + \\ &= -(4\sqrt{e} - 4) \frac{\ln \ln p}{\ln p} + \theta \frac{0.001}{\ln p} \end{aligned}$$

bajariladi. (1.2.14) da bundan va $Q = \sqrt{p}(\ln p)^2$ ekanligidan foydalansak

$$N < Q \left(\frac{1}{2} - \frac{(4\sqrt{e} - 4) \ln \ln p}{\ln p} \right) + 25.45 \frac{Q}{\ln p},$$

hosil bo‘ladi. Ikkinchi tomondan 1.2.1-teoreмага asosan

$$N > \frac{Q}{2} - \frac{1}{2} \sqrt{p} \ln p.$$

Demak,

$$\frac{Q}{2} - \frac{Q}{2 \ln p} < Q \left(\frac{1}{2} - \frac{(4\sqrt{e} - 4) \ln \ln p}{\ln p} \right) + 25.45 \frac{Q}{\ln p}$$

Bundan $(4\sqrt{e} - 4) \ln \ln p$ ifoda chegaralangan bo‘lishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Bunday bo‘lishi mumkin emas. Bu qarama-qarshilik teskari farazimizdan kelib chiqdi. Demak, 1.2.2-teorema o‘rinli.

1.3-§. Trigonometrik yig'indilarning berilgan oraliqdagi n-darajali chegirmalar sonini aniqlashga tatbiqi.

Sonlar nazariyasida g - eng kichik musbat boshlang'ich ildizni yuqoridan baholash muhim ahamiyatga ega. I. M. Vinogradov va B. I. Segallarning ishlarida bunday baho mavjud. Ular yetarlicha katta p tub soni va ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $g = O(p^{\frac{1}{2}+\varepsilon})$ ekanligini isbotlaganlar. g uchun olingan bahoda "O" -simvoli qatnashganligi uchun undan aniq sonli hisoblashlarda foydalanib bo'lmaydi. Ushbu ishda g uchun "O"-simvoliga bog'liq bo'lmagan aniqlashtirilgan $g \leq (4^k \sqrt{p} \ln p) + 1$ baho isbotlaymiz. Bu yerda k soni $p-1$ ning tub bo'luvchilari soni.

Faraz etaylik, $p \geq 3$ tub son bo'lsin. L bilan p moduli bo'yicha $1, 2, 3, \dots, Q$ sonlari orasida joylashgan boshlang'ich ildizlar sonini belgilaymiz. Bu yerda $Q < p$. g shu boshlang'ich ildizlardan bittasi bo'lsin. U holda $a \equiv g^\gamma \pmod{p}$ boshlang'ich ildiz bo'lishi uchun $(\gamma, p-1) = 1$ bo'lishi zarur va yetarlidir.

Faraz etaylik a soni $1, 2, 3, \dots, Q$ qiymatlarni qabul qilsin. Har qanday a ga $\gamma = \text{inda}$ va $\delta = (\gamma, p-1)$ soni mos keladi. U holda osonlik bilan tekshirib ko'rish mumkinki,

$$L = \sum_{a=1}^Q \sum_{dd_1=\delta} \mu(d) = \sum_{dd_1=p-1} \mu(d) S_d, \quad (1.3.1)$$

tenglik o'rinli. Bu yerda

$$\mu(d) = \begin{cases} 1, & \text{agar } d = 1 \text{ bo'lsa,} \\ (-1)^l, & \text{agar } d = p_1 p_2 \dots p_l \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{agarda } p^2 \nmid d \text{ bo'lsa} \end{cases}$$

tenglik bilan aniqlanuvchi Myobus funksiyasi, S_d esa δ ning d ga karrali

bo'ladigan a lar sonini bildiradi. δ ning d ga karrali bo'lishi uchun γ ning d ga karrali bo'lishi zarur va yetarlidir.

Shunday qilib, S_d bu $1, 2, 3, \dots, Q$ sonlari orasidagi d -darajali chegirmalar soniga teng. Shuning uchun ham

$$S_d = \frac{Q}{d} + \theta \sqrt{p} \ln p$$

bo'ladi. Buni (1.3.1) qo'yib

$$L = Q \sum_{d|p-1} \frac{\mu(d)}{d} + \theta \sigma \sqrt{p} \ln p,$$

ni hosil qilamiz. Bu yerda σ bilan $p-1$ ning birdan katta sonning kvadratiga bo'linmaydigan bo'luvchilari soni belgilangan. U holda quyidagi tenglik o'rinli:

$$L = \frac{\varphi(p-1)}{p-1} Q + \theta \sigma \sqrt{p} \ln p. \quad (1.3.2)$$

Bu yerda multiplikativ funksiyalarning asosiy ayniyatiga ko'ra $\theta(n)$ multiplikativ funksiya va $n = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_k^{\alpha_k}$ bo'lsa,

$$\sum_{d|n} \theta(d) = \prod_{i=1}^k (1 + \theta(p_i) + \theta(p_i^2) + \dots + \theta(p_i^{\alpha_i})), \quad (1.3.3)$$

tenglik o'rinli, (1.3.3) da $n = p-1$, $\theta(d) = \frac{\mu(d)}{d}$ deb olib, agar $\alpha_i > 1$

bo'lsa $\mu(p^{\alpha_i}) = 0$ va $\alpha_i = 1$ bo'lganda $\mu(p_i) = -1$ ekanligidan foydalansak

$$\sum_{d|(p-1)} \frac{\mu(d)}{d} = \prod_{i=1}^k \left(1 - \frac{1}{p_i}\right) = \left(1 - \frac{1}{p_1}\right) \left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_k}\right),$$

kelib chiqadi.

$$\varphi(p-1) = (p-1) \left(1 - \frac{1}{p_1}\right) \left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_k}\right),$$

bo'lganidan

$$\sum_{d|(p-1)} \frac{\mu(d)}{d} = \frac{\varphi(p-1)}{p-1}, \quad (1.3.4)$$

bo‘ladi. (1.3.1) dan (1.3.2) ni keltirib chiqarishda biz (1.3.4) ni inobatga oldik.

Endi eng kichik musbat boshlang‘ich ildizning tartibini aniqlash uchun bizga, k ning bo‘luvchilari soni $\tau(k)$ ning bahosi kerak bo‘ladi.

$k = p^\alpha$ (bu yerda p tub son, $\alpha \geq 1$ – butun son) va ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ soni uchun

$$\frac{\tau(k)}{k^\varepsilon} = \frac{\alpha + 1}{k^\varepsilon} \leq \frac{2\alpha}{k^\varepsilon} = \frac{2 \ln p^\alpha}{k^\varepsilon \ln p} \leq \frac{2 \ln k}{\ln 2 k^\varepsilon},$$

deb yoza olamiz. Shuning uchun ham, agar $k = p^\alpha$ bo‘lsa,

$$\lim_{k \rightarrow \infty} \frac{\tau(k)}{k^\varepsilon} = 0, \quad (1.3.5)$$

bajariladi.

Endi umumiy holni qaraymiz. $k = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_l^{\alpha_l}$ bo‘lsin. $\varepsilon > 0$ doimiy sonni tanlab olib, $\frac{\tau(k)}{k^\varepsilon}$ nisbatni qaraymiz. $\tau(k)$ multiplikativ funksiya bo‘lgani uchun

$$\frac{\tau(k)}{k^\varepsilon} = \frac{\tau(p_1^{\alpha_1})}{p_1^{\alpha_1 \varepsilon}} \frac{\tau(p_2^{\alpha_2})}{p_2^{\alpha_2 \varepsilon}} \dots \frac{\tau(p_l^{\alpha_l})}{p_l^{\alpha_l \varepsilon}}, \quad (1.3.6)$$

bajariladi. (1.3.5) dan quyidagilar kelib chiqadi:

- a). (1.3.6) ning o‘ng tomonidagi har bir ko‘paytuvchi chegaralangan;
- b). har qanday $\delta > 0$ soni uchun shunday $N(\delta)$ topiladiki, $p_i^{\alpha_i} > N(\delta)$ bo‘lganda (1.3.6) o‘ng tomonidagi unga mos ko‘paytuvchi δ dan kichik bo‘ladi;
- c). xususiyl holda $\delta = 1$ bo‘lganda, shunday N_1 doimiy soni mavjud bo‘lib $p_i^{\alpha_i} > N_1$ bo‘lganda (1.3.6) ning o‘ng tomonidagi unga mos keluvchi ko‘paytuvchi 1 dan kichik bo‘ladi.

N_1 dan oshmaydigan $p_1^{\alpha_1}, \dots, p_l^{\alpha_l}$ lar soni chegaralangan bo‘lganligi sababli a) va b) larga ko‘ra (1.3.6) ning o‘ng tomonidagi ixtiyoriy sondagi ko‘paytuvchilarning ko‘paytmasi biror c doimiy sonidan kichik bo‘ladi.

Ikkinchi tomondan esa, yetarlicha katta $k > N(\delta)$ lar uchun hech bo‘lmasa $p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_l^{\alpha_l}$ lardan birortasi $N\left(\frac{\delta}{c}\right)$ dan katta bo‘ladi. b) ga ko‘ra (1.3.6) ning

o'ng tomonidagi bunga mos bo'lgan ko'paytuvchi $\frac{\delta}{c}$ dan kichik bo'ladi va (1.3.6)

ning o'ng tomoni δ dan kichik bo'ladi. Bulardan

$$\lim_{k \rightarrow \infty} \frac{\tau(k)}{k^\varepsilon} = 0,$$

kelib chiqadi. Bundan keyin biz $\tau(k) \leq c_1(\varepsilon) \cdot k^\varepsilon$ bahodan foydalanamiz. Bu yerda

$c_1(\varepsilon) = \left(\frac{1}{\varepsilon}\right)^{\frac{1}{2^\varepsilon}}$ deb olish mumkin. Lekin [12] da $c_1(\varepsilon)$ uchun yanada aniqroq qiymat

$$c_1(\varepsilon) = \prod_{p_i < 2^{\frac{1}{\varepsilon}}} \max \left\{ \left[\frac{1}{\varepsilon \ln p_i} \right] p_i^{-\varepsilon \left[\frac{1}{\varepsilon \ln p_i} - 1 \right]}; \left[\frac{1}{\varepsilon \ln p_i} + 1 \right] p_i^{-\varepsilon \left[\frac{1}{\varepsilon \ln p_i} \right]} \right\}, \quad (1.3.7)$$

olingan. $\tau(k)$ uchun topilgan bahodan foydalanib, Eyler funksiyasi $\varphi(k)$ uchun ham baho olish mumkin.

Tushunarliki,

$$\varphi(k) = k \left(1 - \frac{1}{p_1}\right) \left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_l}\right) \geq k \frac{1}{2^l}$$

Lekin, 2^l bu $p_1 p_2 \dots p_l$ sonining bo'luvchilar soni bo'lgani uchun $2^l \leq \tau(k) \leq c_1(\varepsilon) k^\varepsilon$. Shuning uchun ham $\varphi(k) \geq \frac{k}{2^l} \geq \frac{1}{c_1(\varepsilon)} k^{1-\varepsilon}$. Bu yerda $\varepsilon > 0$

ixtiyoriy fiksirlangan son bo'lib c esa faqat ε ga bog'liq doimiy.

Endi

$$\sigma \leq \tau(p-1) < c_1 \left(\frac{\varepsilon}{4}\right) (p-1)^{\frac{\varepsilon}{4}}$$

va

$$\frac{\varphi(p-1)}{p-1} \geq \frac{1}{c_1\left(\frac{\varepsilon}{4}\right)} \frac{(p-1)^{1-\frac{\varepsilon}{4}}}{p-1} = \frac{1}{c_1\left(\frac{\varepsilon}{4}\right)} (p-1)^{-\frac{\varepsilon}{4}},$$

ekanligini e'tiborga olib, (1.3.2) formuladan

$$L \geq \frac{Q}{c_1\left(\frac{\varepsilon}{4}\right)} (p-1)^{-\frac{\varepsilon}{4}} - c_1\left(\frac{\varepsilon}{4}\right) (p-1)^{\frac{\varepsilon}{4}} \sqrt{p} \ln p$$

tengsizlikka ega bo'lamiz.

Agar bu oxirgi tengsizlikda

$$Q = c_1^2\left(\frac{\varepsilon}{4}\right) (p-1)^{\frac{\varepsilon}{2}} \sqrt{p} \ln p$$

deb olsak $L > 0$ bo'ladi. Bu degan so'z $1, 2, 3, \dots, Q$ sonlari orasida hech bo'lmasa bitta $p \geq 3$ modul bo'yicha boshlag'ich ildiz mavjud degani va demak, $p \geq 3$ moduli bo'yicha eng kichik musbat boshlang'ich ildiz

$$g \leq c_1^2\left(\frac{\varepsilon}{4}\right) (p-1)^{\frac{\varepsilon}{4}} \sqrt{p} \ln p, \quad (1.3.8)$$

shartni qanoatlantiradi.

I. M. Vinogradov va B. I. Segallarning ishlarida esa yetarlicha katta p va ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun

$$g = O\left(p^{\frac{1}{2}+\varepsilon}\right), \quad (1.3.9)$$

ekanligi isbotlangan edi. (1.3.8) va (1.3.9) baholar tartib jihatidan bir xil bo'lsada (1.3.8) da berilgan p va ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $c_1\left(\frac{\varepsilon}{4}\right)$ ni aniq hisoblab g uchun aniq chegara ko'rsata olamiz, lekin (1.3.9) da bu ishni qilib bo'lmaydi. Shuningdek (1.3.8)-tengsizlik barcha $p \geq 3$ tub sonlar uchun o'rinli. (1.3.2) formulada va σ ning ta'rifidan foydalanib $p \geq 3$ modul bo'yicha eng kichik musbat boshlang'ich ildiz uchun yuqoridan baho olish mumkin. (1.3.2) da σ bu $(p-1)$ ning tub bo'luvchilari soni, shuning uchun ham, agar $(p-1)$ ning

kanonik yoyilmasi

$$p-1 = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_k^{\alpha_k}$$

bo'lsa, u holda

$$\tau(p-1) = (\alpha_1 + 1)(\alpha_2 + 1) \dots (\alpha_k + 1)$$

bo'lib $\sigma = 2^k$ bo'ladi.

Shuningdek,

$$\varphi(p-1) = (p-1) \left(1 - \frac{1}{p_1}\right) \left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_k}\right) > (p-1) \frac{1}{2^k}$$

ekanligini e'tiborga olib (2) dan

$$L > 2^{-k} Q - 2^k \sqrt{p} \ln p, \quad (1.3.10)$$

ga ega bo'lamiz.

Endi, agar $Q = (4^k \sqrt{p} \ln p) + 1$ deb olsak, $L > 0$ bo'ladi va demak bundan (1.3.8) dagi singari

$$g \leq (4^k \sqrt{p} \ln p) + 1 \quad (1.3.11)$$

degan xulosaga kelamiz, (1.3.11)-formula sodda bo'lsada undan foydalanish uchun $(p-1)$ ning har xil tub bo'luvchilari sonini bilish kerak. Agar $(p-1)$ ning tub bo'luvchilari soni aniq bo'lmasa, u holda (1.3.8) dan foydalanish ma'qulroqdir. (1.3.8) dan foydalanganda $c_1 \left(\frac{\varepsilon}{4}\right)$ ning qiymatini (1.3.7) tenglikdan foydalanib hisoblash yaxshi natijaga olib keladi.

I bob uchun xulosa

I bobda birinchi darajali va ikkinchi darajali trigonometrik yig'indilarni atrioflichga o'rganildi va baholar olindi.

Ushbu

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i \frac{ax}{m}}$$

yig'indini qaraymiz. Bunda a – butun son, m -natural son. S_1 yig'indidagi $e^{2\pi i \xi} = \cos 2\pi \xi + i \sin 2\pi \xi$ ko'rinishdagi funksiya davriy bo'lib uning davri 1 ga teng, ya'ni $e^{2\pi i(\xi+1)} = e^{2\pi i \xi} \cdot e^{2\pi i} = e^{2\pi i \xi}$

Bundan agar $x \equiv y \pmod{m}$ ya'ni $x = y + mt, t \in \mathbb{Z}$ bo'lsa, u holda

$$e^{2\pi i \frac{ax}{m}} = e^{2\pi i \frac{a(y+mt)}{m}} = e^{2\pi i \frac{ay}{m}} \cdot e^{2\pi i at} = e^{2\pi i \frac{ay}{m}}$$

ekanligi kelib chiqadi. Agarda S_1 yig'indida a soni m ga bo'linsa (a/m), u holda $a = mt$ va

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i tx} = 1 + e^{2\pi i t} + e^{2\pi i (2t)} + \dots + e^{2\pi i (m-1)t} = \underbrace{1 + 1 + \dots + 1}_m = m,$$

bo'ladi. Agarda S_1 yig'indida a soni m ga bo'linmasa ($a \nmid m$), u holda

$$S_1 = 1 + e^{2\pi i \frac{a}{m}} + \dots + e^{2\pi i \frac{a(m-1)}{m}} = \frac{1 - \left(e^{2\pi i \frac{a}{m}} \right)^m}{1 - e^{2\pi i \frac{a}{m}}} = \frac{1 - e^{2\pi i a}}{1 - e^{2\pi i \frac{a}{m}}} = 0.$$

Shunday qilib,

$$S_1 = \sum_{x=0}^{m-1} e^{2\pi i \frac{ax}{m}} = \begin{cases} m, & \text{agar } a/m, \\ 0, & \text{agar } a \nmid m \end{cases}$$

ekanligini isbotladik.

